



**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY
MARKAZI**



**DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI FANINI
O'QITISHNING ZAMONAVIY
MODELLARI VA TEXNOLOGIYALARI**



Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 30-dekabrda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan

Tuzuvchi: **Ganiyev B.** - FarDU "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasida professori, f.f.d. (DSc)

Taqrizchi: **Yuldashev S.** - Farg'ona davlat universiteti "Milliy g'oya" kafedrasida dotsenti, f.f.d. (DSc)

*O'quv dasturi Farg'ona davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.
(2025-yil "27" dekabrda 5-sonli yig'ilish bayonnomasi)*

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA‘LIM METODLARI	13
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	14
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	43
V. KEYSLAR BANKI	44
VI. MUSTAQIL TA‘LIM MAVZULARI	45
VII. GLOSSARIY	45
VIII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	47

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 2-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik liseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy modellari va texnologiyalarini tadbqiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab olingan tanlov modullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta‘minlanadi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog xodimlarining malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog xodimlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik darajada ta‘minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining uzluksiz rivojlanishini ta‘minlashdan iborat.

Kursning **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz oshirish va rivojlantirish;
- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o‘qitish sifati va samaradorligini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- o‘quv jarayonini ilm-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta‘minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo‘nalishlarda bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- zamonaviy pedagogik modellar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish samaradorligini aniqlash mezonlarini;
- interaktiv va amaliy yondashuvini;
- o‘quvchilarni huquq sohasiga oid bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmalarini;
- davlat va huquq asoslari fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning samarali usul va vositalarini;
- davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy metodlarini *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- o‘quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga yo‘naltirish usullarini shakllantirish;
- qonuniy masalalarni o‘rganish, ularni amaliyotda qo‘llash va huquqiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- huquqiy kompetensiyalar turlari ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini bilish;
- darslarni interaktiv va qiziqarli o‘tish;
- to‘g‘ri va asosli qarorlar qabul qilishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish kabi *ko‘nikma va malakalariga* ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- hamjihatlik, o‘zaro hurmat va tolerantlikni kuchaytirish;
- ta‘lim samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning umumiy tasnifini tadbiiq etish;
- huquqiy vaziyatlarga mos javoblar topish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- huquqiy muammoning alternativ yechimlarini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Zamonaviy pedagogik tendensiyalarni amaliyotga joriy etilish samaradorligini aniqlash mezonlari.	2	2	
2.	Interaktiv va amaliy yondashuvni joriy etish.	2	2	
3.	O'quvchilarni huquq sohasiga oid bilimlarini amaliyotga tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish.	2		2
4.	Davlat va huquq asoslari fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning samarali usul va vositalari.	2		2
5.	Huquqiy kompetensiyalar turlari ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.	2		2
Jami:		10	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-Mavzu: Zamonaviy pedagogik tendensiyalarni amaliyotga joriy etilish samaradorligini aniqlash mezonlari.

Zamonaviy pedagogik tendensiyalarni amaliyotga joriy etilish samaradorligini aniqlash mezonlari. O'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga yo'naltirish metodlari. Ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan pedagogic texnologiyalarning umumiy tasnifi.

2-Mavzu: Interaktiv va amaliy yondashuvni joriy etish.

Interaktiv va amaliy yondashuvni joriy etish. Qonuniy masalalarni o'rganish, ularni amaliyotda qo'llash va huquqiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Darslarni interaktiv va qiziqarli qilish.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI.

1-amaliy mashg‘ulot: O‘quvchilarni huquq sohasiga oid bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish.

O‘quvchilarni huquq sohasiga oid bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish ko‘nikmalarini shakllantirish. Dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish.

2-amaliy mashg‘ulot: Davlat va huquq asoslari fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning samarali usul va vositalari.

Davlat va huquq asoslari fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning samarali usul va vositalari. Davlat va huquq asoslari fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning samarali usul va vositalari. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy metodlar.

3-amaliy mashg‘ulot: Huquqiy kompetensiyalar turlari ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.

Huquqiy kompetensiyalar turlari ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni. Huquqiy muammoning alternativ yechimlarini ishlab chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari. To‘g‘ri va asosli qarorlar qabul qilishda zamonaviy metodlardan foydalanish.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishning zamonaviy modellari va texnologiyalari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va masofaviy ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- video ma’ruzada zamonaviy interaktiv texnologiyalar yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalar;
o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda bulutli texnologiyaga asoslangan dasturiy vositalar, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari va boshqa interaktiv ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Maxsus adabiyotlar

1. Muxamedov H.M. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. (Darslik) - Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”. 2024. - 384 b.
2. Odilqoriyev X.T., I.T.Tulteyev va boshq. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - Toshkent: “Sharq”, 2009. - B. 568.
3. H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. Davlat va huquq tarixi. Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. - B. 345.
4. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. - Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”. 2021. - B. 246.
5. Najimov M.K. Huquqiy ong va huquqi madaniyat. - Toshkent: TDYuU, 2018. - B. 66.
6. Javliyev N.B. Huquqning mohiyati: an’naviy va zamonaviy nazariyalar. (O‘quv qo‘llanma) - Toshkent: TDYuI, 2010. - B. 96.
7. Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy kadriyatlar. (Monografiya) - Toshkent: SMI-ASIA, 2010. - B. 400.

II. Elektron ta’lim resurslari

1. <http://natlib.uz>
2. <http://edu.uz>
3. <http://lex.uz>
4. <http://lib.bimm.uz>
5. <http://ziyonet.uz>

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan zamonaviy o‘qitish metodlari tobora keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o‘zlashtirishiga erishish imkonini beradi. Sun’iy intellektga asoslangan ta’lim metodlari o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish, shaxsiylashtirilgan va adaptiv o‘qitishni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim metodlarini tanlashda har bir mashg‘ulotning maqsadi va didaktik vazifalaridan kelib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan interfaol metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning faolligini oshiradi va ularning o‘zlashtirish darajasining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keladi. Bunda o‘quv mashg‘ulotlarini oqilona tashkil etish, ta’lim beruvchining sun’iy intellekt vositalari yordamida ta’lim oluvchilarning qiziqishlari, bilim darajasi va o‘rganilayotgan o‘quv materialining mazmuniga mos metod hamda vositalarni tanlashi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, sun’iy intellektga asoslangan interfaol va interaktiv ta’lim metodlaridan foydalanish orqali ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, amaliy ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish, hamda raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Interfaol metodlar deganda ta’lim oluvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirish hamda ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchi–ta’lim oluvchi va ta’lim oluvchi–o‘qituvchi hamkorligi orqali yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlaydigan o‘qitish usullari tushuniladi. Ushbu metodlardan foydalanilganda o‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkil etuvchi va yo‘naltiruvchi sifatida ishtirok etib, ta’lim oluvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Natijada ta’lim oluvchilar o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida faol qatnashadilar.

Interfaol ta’lim metodlari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar bir qator ijobiy jihatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, bunday mashg‘ulotlar o‘quv materialini chuqur va samarali o‘zlashtirishga xizmat qiladi hamda ta’lim oluvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini va ichki rag‘batini oshiradi. Shu bilan birga, ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar yangi bilimlarni egallash jarayonida hisobga olinadi va ular bilan uzviy bog‘lanadi. Interfaol metodlar ta’lim oluvchilarning tashabbuskorligi va mas’uliyatini qo‘llab-quvvatlab, bilimlarni amaliy faoliyat orqali mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, o‘quv jarayonida ikki tomonlama fikr almashish, muhokama va tahlil qilish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Quyida o'quv mashg'ulotlarida keng qo'llaniladigan interfaol ta'lim metodlarining mazmuni hamda ularni qo'llash bosqichlari bilan batafsil tanishamiz.



“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini

og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Muammoli vaziyat” metodi - ta'lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta'lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo'yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo'lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta'lim oluvchilarning qiziqishlari so'nishiga, o'zlariga bo'lgan ishonchlarining yo'qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo'llanilganda ta'lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o'rganadilar.


“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;

- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.

Blended Learning metodi

Blended Learning




Flipped Learning texnologiyasi

Ўқитишнинг анъанавий шакли



Flipped learning shakli



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.

1-MAVZU: Zamonaviy pedagogik tendensiyalarni amaliyotga joriy etish samaradorligini aniqlash mezonlari. (2 soat)

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish mustaqillikning ilk kunlaridanoq eng muxim vazifalardan biri sifatida doimiy diqqat-e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Yurtimizda ta’lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo‘naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu sohani davlat budjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ziyod ekani, bunday ko‘rsatkichlarni dunyoning boshqa davlatlarida kamdan-kam uchratish mumkinligi bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, YUNISEF, YUNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etilayotganligi fikrimizning yorqin dalili bo‘la oladi.

Mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarini puxta egallagan, o‘z yurti, o‘z xalqiga fidoyi, yurtboshimiz boshlagan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan, har tomonlama sog‘lom avlodni tarbiyalash har bir ta’lim beruvchining eng muhim vazifasi, yurtboshimiz ta’birlari bilan aytganda balki burchidir. Ushbu burch va vazifalarni bajarish har bir pedagogdan yuksak bilim, ulkan mahorat, zamonaviy ilm-fanning yutuqlaridan xabardor bo‘lish, xorijiy tillarni puxta egallash, kompyuter texnologiyalaridan, internetdan maqsadli foydalanish ko‘nikmalariga hamda yuqori malakaga ega bo‘lishni talab etmoqda.

Uzluksiz ta’lim tizimining oldida turgan eng muhim va eng dolzarb vazifalardan biri-bu o‘qitishda innavatsion ta’lim texnologiyalaridan keng foydalanish, ularni o‘quv jarayoniga tadbiiq etish va jahon standartlari talablariga bilimli, uddaburon, tadbirkor, ishining ko‘zini biladigan va raqobatbardosh mutaxassis kadrlar tayyorlash, shu bilan birga komil inson shakllantirishdan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab”¹. Boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona.ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo, shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish-ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi.

¹ Maktab ta’limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur 23.08.2019. / <https://president.uz/oz/lists/view/2820>

O'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqishdan farqli o'laroq, ta'lim texnologiyasi talabalar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan bo'lib, u talabalarning shaxsiy hamda o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatlarini inobatga olgan holda, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Ta'lim texnologiyasining markaziy muammosi - ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish orqali ta'lim maqsadiga erishishni ta'minlashdan iborat. Pedagogik texnologiya nazariyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab asoslanib kelinayotgan bo'lsada, aynan "pedagogik texnologiya" tushunchasiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Xususan, pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik texnologiyani "Pedagogik texnologiya tabiatan amaliyotga joriy etiladigan aniq pedagogik tizim loyihasi sifatida talqin etilad"² - deya ta'riflaydi hamda asosiy diqqatni o'quv-pedagogik jarayonni oldindan loyihalashga qaratadi.

O'z mohiyatiga ko'ra pedagogik texnologiya vaqt taqsimotiga muvofiq dasturlanib, ilmiy jihatdan asoslangan hamda kutilgan natijaga erishishni ta'minlovchi pedagogik jarayonning barcha bosqich va qismlarining vazifalari aniq belgilangan tizimni ifodalaydi.

Ta'limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to'la egallashlariga erishish, shaxsning ta'lim diqqat markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun, barcha fan o'qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib borish lozim.

Uzluksiz ta'lim tizimining oldiga qo'yilgan davlat va ijtimoiy buyurtmaga muvofiq, oliy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish, ilm-fanning so'nggi yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, ijtimoiy faol, yuksak ma'naviyatli, kasb-hunarli, Ona-Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, ijodiy va mustaqil fikr yurita oladigan, davlat va jamiyat oldida o'z burchi va javobgarligini his etadigan barkamol shaxsni kamolga etkazish, ularning ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishi ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. O'quv-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchi-talaba yoshlarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan

² Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. - Москва: Педагогика, 1989. - С. 5.

vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish hamda ularning amaliy mashg'ulotlarda axborot texnologiyalari, elektron darsliklar va multimedialardan foydalana bilishi muhimdir. Bu esa talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalashni, o'quv faoliyatini tahlil qilishni, istiqbolda kasbiy mahorat o'rttirish ularning ichki ehtiyojiga aylantirilishini talab etadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining bir tizimga solingan ilmiy-nazariy va metodik asoslangan yangi shakl, usul va vositalarining majmuidir. Bunda yangi mazmun, shakl, usul va vosita uyg'unligida maqsad, vazifa, faoliyat va pedagogik natija yaxlitligi ta'minlanadi hamda o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, tasvirlash emas, balki loyihalashtirilgan natijalarni amalga oshirish imkonini beruvchi amaliy ko'rsatmali tuzilmada o'z ifodasini topadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar talabalar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan birga, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to'g'ri joriy etilishi o'quvchilarning bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabalardan ko'proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, talabani kim o'qitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarni o'zlari tamonidan baholashga qodir zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak.

Bugungi kunda o'qitish jarayonini samarali va natijali bo'lishini ta'minlashga yo'naltirilgan interfaol uslublarning va o'qitish texnologiyalarining barchasi mamlakatimizning barcha umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-xunar hamda oliy ta'lim muassasalari, o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash institutlari

va fakultetlarda keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda xamda ijobiy natijalar bermoqda.

Respublika ta'lim muassasalarida interfaol ta'limni tashkil etishda quyidagi eng ommaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda:

1. Interfaol metodlar: "Keys-stadi" (yoki "O'quv keyslari"), "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat" va b.

4. Strategiyalar: "Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zig-zag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval", "Yumaloqlangan qor" va h.k.

5. Grafik organayzerlar: "Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?" va b. Interfaol ta'lim bevosita interfaol metodlari yordamida tashkil etiladi.

6. Modulli-kredit tizimi zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli sanaladi. Bugungi kunda taraqqiyparvar insoniyat davlatlar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy sohalarda o'zaro kelishuvga erishish, hamkorlikni yo'lga qo'yishning yangidan yangi yo'llarini izlashda davom etmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimida bilimlarni egallashning yangi konsepsiyasi - zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarning turli xil ko'rinishlarini qo'llash juda yaxshi samara bermoqda. Bunda ta'limning yangi metodlardan foydalanishda tahsil oluvchilarning intellektual, erkin fikrlashni rivojlantirish, o'z fikrini asoslab berishga intilishi, o'z g'ayalar fikrini tinglay olishi, muammolar yechimini topishga harakat qilishi, ijodiy va axloqiy taraqqiyoti jarayonlariga samarali ta'sir etadi.

O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim metodlaridan foydalanganda, avvalo, bu metoddan foydalanishning o'rni, uning samaradorligini bilishi muhimdir. Buning uchun har bir pedagog hayotiy tajribaga ega bo'lgan, yetarli bilimlar bilan qurollangan, ta'lim oluvchilarga nisbatan muammolarning yechimini oldindan hal eta oladigan va ularni ta'lim oluvchilarga yetkazish malakasiga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, innovatsion texnologiya asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirishga va o'zlashtirilgan bilimlarni mustaqil baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qila oluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Shuning uchun ham bugungi kunda barcha ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'qituvchining kasbiy mahorati, hayotiy tajribasi, zamonaviy o'qitish uslublari-interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

2-MAVZU: Interaktiv va amaliy yondashuvlarni joriy etish. (2 soat)

Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, ularning o'quv jarayonidagi qiziqishini saqlash va davomiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim muassasalari IT texnologiyalar, interaktiv usullar va ijodiy yondashuvlardan keng foydalanib, darslarni yanada ta'sirli va samarali qilib tashkil etishga intilishmoqda.

Jahon miqyosida ta'lim tizimidagi global o'zgarishlar va raqamlashtirish jarayonlari an'anaviy ta'lim usullariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Buning natijasida, zamonaviy ta'lim tizimida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlarga ehtiyoj sezildi. Innovatsion yondashuvlar ta'limda yangi usullar, texnologiyalar va interaktiv vositalarni qo'llab-quvvatlaydi va ularning qo'llanilishi natijasida talabalarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va qiziqishi oshishi mumkin.

IT texnologiyalar o'quv jarayonini individuallashtirish, virtual muhitda ta'lim olish va darslarni onlayn tarzda tashkil etish imkonini beradi. Interaktiv usullar talabalarni jonli ravishda o'quv jarayoniga jalb qilish va ularning o'qishga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodiy yondashuvlar esa talabalarda mustaqil fikrlash, muammolarni o'z usullarida hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Innovatsion yondashuvlarning turli ko'rinishlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini o'rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish: Innovatsion yondashuvlar, IT texnologiyalar va interaktiv usullar bo'yicha turli ilmiy manbalar, jumladan, maqolalar, kitoblar va konferensiya materiallari o'rganildi. Ushbu yondashuvlarning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar yig'ildi.

O'qituvchilar va tinglovchilar o'rtasida innovatsion yondashuvlardan qo'llanilishi haqida anketa o'tkazildi. Ularning qaysi turlaridan ko'proq qoniqarli natijalarga erishilayotganligi bo'yicha fikr-mulohazalar yig'ildi.

Tajriba o'tkazish: Ta'lim jarayonida IT texnologiyalardan, interaktiv usullardan va ijodiy yondashuvlardan foydalanib darslarni tashkil etish orqali talabalarning akademik natijalari o'lchandi. Tajriba jarayonida har bir yondashuvning foyda va kamchiliklari baholandi.

Natijalar innovatsion yondashuvlarning o'quv jarayonida qo'llanilishi talabalarning o'quv jarayoniga nisbatan ijobiy munosabatini oshirishini va bilimlarni o'zlashtirish darajasini yaxshilashini ko'rsatdi.

IT texnologiyalar: onlayn dars platformalari, masalan, Zoom, Google Classroom, va Microsoft Teams yordamida o'quv jarayonini tashkil qilish natijasida talabalar darslarga qo'shimcha qiziqish bildirishdi. Ayniqsa, videoma'lumotlar,

interaktiv taqdimotlar va virtual laboratoriyalar o'quv jarayonini jonlantirishda katta yordam berdi. Ushbu texnologiyalar orqali talabalarning mustaqil o'quv jarayonidagi ishtiroki oshganligi kuzatildi, chunki ular o'ziga qulay vaqtda dars materiallari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Interaktiv usullardan kelib chiqib, interaktiv yondashuvlar, masalan, keys-stadi, ro'lli o'yinlar va guruhli muhokamalar talabalarda faol ishtirok, jamoaviy ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi aniqlandi. Har bir o'quvchi o'zining bilim darajasini oshirish uchun o'zini faolroq ko'rsatishga intiladi.

Ijodiy yondashuvlar: tinglovchilarga muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan ijodiy yondashuvlar tinglovchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berdi. Masalan, muammo yechimini ijodiy usulda topish talabalarda fikrni erkin ifodalash qobiliyatini oshirgan. Loyiha ishlari, prezentatsiyalar va kreativ topshiriqlar orqali talabalarning ijodiy salohiyatini ko'rish imkoni paydo bo'lgan.

Natijalari ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

IT texnologiyalar: O'quv jarayonini raqamli muhitga ko'chirish natijasida, talabalar o'quv materiallariga doimo kirish imkoniga ega bo'lishdi. Bu ta'lim jarayonini globalashtirish va har bir o'quvchiga individual yondashuvni ta'minlash imkonini beradi. Shuningdek, bu vositalar ta'lim jarayonini uzluksiz davom etishini ta'minlab, talabalarning faolligini saqlashga yordam beradi.

Interaktiv usullar: Interaktiv usullarni qo'llash natijasida talabalar bir-birlari bilan hamkorlikda ishlashni o'rganadilar, bu esa ularda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, interaktiv usullar har bir talabaning o'quv jarayonida faol ishtirokini ta'minlab, ularning bilim sifatini oshiradi. Bu usullar talabalarning fikrlash darajasini chuqurlashtirishga, yangi bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Ijodiy yondashuvlar: Ijodiy yondashuvlardan foydalanish talabalarda muammolarni yangi usullar bilan hal qilish, yangicha fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari ko'rsatganidek, ijodiy yondashuvlar yordamida o'quv jarayoni talabalardagi mustaqil fikrlash salohiyatini kuchaytiradi, bu esa talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli bo'lishlariga yordam beradi. Zamonaviy ta'lim jarayonida IT texnologiyalar, interaktiv usullar va ijodiy yondashuvlardan foydalanish talabalarning bilim olish jarayonidagi ishtiroki va qiziqishini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IT texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim rol o'ynaydi, chunki ular orqali o'quvchilar o'zlarining ta'lim jarayonini mustaqil boshqarish imkoniga ega bo'ladi. Interaktiv usullar tinglovchilar o'rtasida jamoaviy

ishlash ko'nikmalarini rivojlantirib, ularni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga chorlaydi. Ijodiy yondashuvlar esa talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatini kuchaytiradi va ularda muammolarga individual yondashuvni shakllantiradi.

Bir qator tadqiqotlar IT texnologiyalarning ta'lim jarayoniga qo'shgan hissasini aniqlagan. Masalan:

Mustaqillik va qiziqishni oshirish: onlayn platformalardan, xususan, Google Classroom, Zoom va Microsoft Teams singari ta'lim vositalaridan foydalanish natijasida talabalarda mustaqil o'quv jarayoniga qiziqish kuchayadi. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, onlayn darslar yordamida talabalarga bilim olish jarayonini o'z vaqtida tashkil etish va o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Masalan, 2020 yildagi pandemiya davrida onlayn o'quv platformalari orqali amalga oshirilgan ta'limning samaradorligi yuqori bo'lgani ta'kidlanadi.

Ta'lim jarayonini raqamlashtirish: IT texnologiyalar yordamida har bir talabaning o'zlashtirish darajasini kuzatish va tahlil qilish imkoniyati kengroq bo'ladi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonining individuallashtirilishiga yordam beradi, chunki o'qituvchilar onlayn platformalarda talabalarning faoliyatini nazorat qilib, har bir talabaga zarur bo'lgan yordamni ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Interaktiv usullar ta'lim jarayonini jonli va talabalar o'rtasida hamkorlikka asoslangan muhitga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keys-stadi va rolli o'yinlarning ta'siri: Tadqiqotlar ko'rsatganidek, keys-stadi va rolli o'yinlar singari interaktiv yondashuvlar talabalarning voqealarga tezroq moslashishi va muammolarni amaliy ravishda halqilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Masalan, har xil voqealar yoki muammolarni amaliy ravishda ko'rib chiqish orqali talabalarda ma'lum bir holatlarda qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu usullarning samaradorligi Germaniya va AQShdagi pedagogika sohasida o'tkazilgan tadqiqotlar orqali tasdiqlangan.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish: Talabalar o'rtasidagi guruhli muhokamalar va hamkorlikka asoslangan usullar talabalarni dars jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Interaktiv usullar har bir talabaning o'z fikrini erkin ifoda qilishiga imkon beradi va buning natijasida talabalarning muloqot va jamoaviy ishlash ko'nikmalari rivojlanadi. Umuman olganda, zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi ta'lim jarayonini yanada samarali qilib, talabalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

“Davlat va huquq asoslari” fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar masalasi bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ushbu fan faqat nazariy tushunchalarni yod olish emas, balki huquqiy tafakkur, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks ta'lim jarayonidir. Tinglovchi norma matnini o'qiy olishi, uni tahlil qila olishi, amaliy vaziyatga qo'llay

olishi va huquqiy xulosa chiqarishi zarur. Bu esa an'anaviy "ma'ruza – qayta aytish – nazorat" modeli bilan to'liq ta'minlanmaydi. Shu bois interaktiv va amaliy yondashuvlarni joriy etish zamonaviy huquqiy ta'limning metodik talabi sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagogika nazariyasida faol o'qitish (active learning) yondashuvi talabanning bilish jarayonida passiv tinglovchi emas, balki faol subyekt sifatida ishtirok etishini nazarda tutadi. S.Freeman va hamkorlarining 2014-yildagi tadqiqotida faol o'qitish usullari qo'llanilgan ta'lim jarayonlarida o'zlashtirish darajasi sezilarli oshgani va muvaffaqiyatsizlik ko'rsatkichlari kamaygani aniqlangan. Jumladan: "An'anaviy ma'ruza shaklida ta'lim olgan talabalar faol o'qitish qo'llanilgan guruhlariga nisbatan 1,5 baravar ko'proq muvaffaqiyatsizlikka uchragan"³. Bu xulosalar yuridik fanlarga ham bevosita tatbiq etilishi mumkin, chunki huquqiy tafakkur ham amaliy faoliyat orqali shakllanadi.

Zamonaviy metodikaning muhim tamoyillaridan biri - konstruktiv moslashuv (constructive alignment) hisoblanadi. J.Biggs va C.Tang ta'kidlaganidek, "Konstruktiv moslashuvning asosiy tamoyili shundan iboratki, ta'lim tizimidagi barcha tarkibiy qismlar - kutilayotgan o'quv natijalari, o'qitish va o'rganish faoliyatlari hamda baholash topshiriqlari - o'zaro uyg'unlashtirilgan bo'lishi kerak"⁴ - ta'lim jarayonida kutilayotgan natijalar, o'quv faoliyati va baholash mezonlari o'zaro uyg'unlashgan bo'lishi zarur. "Davlat va huquq asoslari" fanida bu shuni anglatadiki, agar maqsad talabanning huquqiy vaziyatni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish bo'lsa, dars jarayonida real yoki modellashtirilgan huquqiy vaziyatlar ustida ishlash tashkil etilishi, baholash esa aynan tahlil va asoslash sifatiga qaratilishi kerak.

Interaktiv yondashuvlar mazkur fan doirasida bir necha asosiy shakllarda namoyon bo'ladi. Ulardan biri - case-study, ya'ni huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish metodidir. Bu metodda talabalar faktlarni aniqlash, huquqiy muammoni belgilash, tegishli normani topish va xulosa chiqarish bosqichlarini bosib o'tadi. M.A.Farxutdinovanning huquq fanlarini o'qitishda noan'anaviy metodlarni qo'llash bo'yicha tadqiqotida aynan vaziyatli tahlil usuli talabalarning huquqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita sifatida ko'rsatiladi. Xususan, "huquq fanlarini o'qitishda interfaol va noan'anaviy metodlardan foydalanish talabalarning faolligini oshiradi hamda ularni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi"⁵ – deb ta'kidlaydi.

³ Freeman S., Eddy S.L., McDonough M., Smith M.K., Okoroafor N., Jordt H. & Wenderoth M.P. Active learning increases student performance in science, engineering, and mathematics. // Proceedings of the National Academy of Sciences, 111(23), 2014. - P. 8410-8415. / <https://doi.org/10.1073/pnas.1319030111>

⁴ Biggs J. & Tang C. Teaching for Quality Learning at University (4th ed.). - Maidenhead: Open University Press / McGraw-Hill Education. 2011. - P. 95.

⁵ Farxutdinova Matluba Amanbayevna. Huquqshunoslik fanlarini o'qitishda noan'anaviy metodlarni qo'llashning samaradorligi. / Journal of New Century Innovations, 40(2), 2023. - B. 90-95. / <https://newjournal.org/new/article/view/9459>

Interaktivlikning yana bir muhim ko‘rinishi - munozara va debat metodidir. Huquqiy tafakkur qarama-qarshi pozitsiyalarni asoslash orqali rivojlanadi. Talabalar ikki guruhga bo‘linib, masalan, so‘z erkinligi chegaralari yoki voyaga yetmaganlar javobgarligi kabi masalalarda turli nuqtai nazarlarni himoya qilishi mumkin. Bunda asosiy e‘tibor hissiy fikr bildirishga emas, normativ asos va dalillarga tayanishga qaratiladi. Bu usul huquqiy argumentatsiya madaniyatini shakllantiradi.

Rol o‘ynash (moot court) metodini qo‘llash esa huquqiy jarayonni amaliy modelda aks ettirish imkonini beradi. Talabalar sudya, da‘vogar, javobgar yoki prokuror rovida chiqish qilib, protsessual tafakkurni rivojlantiradi. Bu metod orqali huquq faqat nazariy tushuncha emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi real mexanizm sifatida anglanadi. D.A.Xusanova huquq fanlarini o‘qitishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini qo‘llash jarayonida aynan interaktiv modellashtirish usullari talabalar faolligini oshirishini qayd etib: “huquqiy ta’limda keng tarqalgan interfaol usullarni qo‘llash samarali natija beradi”⁶.

Amaliy yondashuvlar esa interaktivlikni chuqurlashtiradi. Masalan, huquq normasi tuzilishini tahlil qilish laboratoriyasi tashkil etilishi mumkin. Talabalar norma tarkibidagi gipoteza, dispozitsiya va sanksiyani ajratadi hamda uni konkret vaziyatga tatbiq etadi. Bu mashq nazariy tushunchani mantiqiy tuzilma sifatida anglashga yordam beradi. Yoki huquqiy hujjat yozish bo‘yicha mikro-topshiriqlar berilishi mumkin: ariza, shikoyat, tushuntirish xati yoki shartnoma bandini yozish kabi. Bu faoliyat huquqiy savodxonlikni real kommunikativ ko‘nikmaga aylantiradi.

Interaktiv va amaliy yondashuvlarni ilmiy asoslashda D.Kolbning tajribaviy o‘rganish modeli muhim o‘rin tutadi. Kolbga ko‘ra, bilim tajriba, refleksiya, nazariy umumlashtirish va amaliy sinov bosqichlari orqali shakllanib, “O‘rganish - tajribani qayta ishlash va transformatsiya qilish natijasida bilim hosil bo‘ladigan jarayon hisoblanadi”⁷. “Davlat va huquq asoslari” fanida bu jarayon quyidagicha kechishi mumkin: avval vaziyatli mashq bajariladi (tajriba), so‘ng xatolar va to‘g‘ri yechimlar muhokama qilinadi (refleksiya), keyin norma va prinsiplar tizimli tushuntiriladi (nazariya), yakunda esa boshqa vaziyatda qo‘llanadi (sinov). Bu sikl bilimni mustahkam va funksional qiladi.

Raqamli texnologiyalar ham interaktivlikni kuchaytiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Onlayn testlar, tezkor so‘rovlar, elektron hujjatlar bilan ishlash, vizual xaritalar tuzish kabi usullar talabaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq texnologiya maqsad emas, balki pedagogik dizaynni kuchaytiruvchi vosita ekanini unutmaslik zarur.

⁶ Xusanova Dilnoza Alimqul qizi. Huquqshunoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy ta‘lim texnologiyalari. // PEDAGOGS, 45(2), - B. 37-42.

⁷ Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. 1984. - P. 38.

Xulosa qilib aytganda, “Davlat va huquq asoslari” fanida interaktiv va amaliy yondashuvlarni joriy etish talabalarida huquqiy tafakkur, normativ tahlil ko‘nikmasi va dalillash madaniyatini shakllantirishning samarali vositasidir. Zamonaviy pedagogik nazariyalar – faol o‘qitish, konstruktiv moslashuv va tajribaviy o‘rganish modeli – bu jarayonni ilmiy jihatdan asoslab beradi. Huquqni o‘qitish jarayoni shunchaki bilim uzatish emas, balki huquqiy ong va mas’uliyatli fuqaro pozitsiyasini shakllantirishdir. Interaktiv va amaliy yondashuvlar aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-amaliy mashg'ulot: O'quvchilarni huquq sohasiga oid bilimlarini amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmalarini shakllantirish.

Huquqiy bilimlar nafaqat nazariy tushunchalarni egallash, balki ularni kundalik hayotda qo'llay olish bilan ahamiyatlidir. O'quvchilarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanadi. Bu jarayonda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi kabi institutlar faoliyati haqida tushuncha berish ham muhimdir.

Asosiy normativ hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tinglovchilarning huquqiy bilimlarini amaliyot bilan bog'lashda tayanch manba bo'lib xizmat qiladi.

Mashg'ulotning maqsadi.

Ta'limiy maqsad: O'quvchilarda huquqiy bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish.

Tarbiyaviy maqsad: Huquqiy madaniyat, mas'uliyat va fuqarolik burchini anglashni rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Tahlil qilish, muammo yechish, huquqiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar. Mashg'ulot yakunida tinglovchilar: Huquqiy vaziyatlarni tahlil qila oladi. Qonun moddalari asosida xulosa chiqaradi. O'z huquq va majburiyatlarini biladi. Sud jarayoni modeli yoki munozarada ishtirok eta oladi.

Amaliy mashg'ulot.

Sud jarayoni rolli o'yini - o'quvchilarda huquqiy bilimlarni amaliy qo'llash, dalillash, mantiqiy fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantiruvchi samarali interfaol metoddur. Ushbu mashg'ulot O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi qonunchilik asosida tashkil etiladi.

Vazifa: O'quvchilar guruhlarga bo'linadi: Sudya, Prokuror, Advokat, Jabrlanuvchi, Ayblanuvchi

Jarayon: Vaziyat beriladi (masalan: shartnoma buzilishi, mulk nizosi, ma'muriy huquqbuzarlik). Tomonlar o'z dalillarini qonun asosida himoya qiladi. Sudya yakuniy qaror chiqaradi.

Bu usul huquqiy fikrlash va nutq madaniyatini rivojlantiradi.

Huquqiy vaziyatni tahlil qilish (Case-study).

Case-study - bu o'quvchilarga real yoki realga yaqin huquqiy vaziyat berilib, uni qonunchilik asosida tahlil qilish, muammoni aniqlash va asoslangan xulosa

chiqarish jarayonidir. Bu metod o‘quvchilarda huquqiy tafakkur va amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Asosiy manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va amaldagi kodekslar (Jinoyat kodeksi, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, Mehnat kodeksi va boshqalar)dan foydalaniladi.

Namuna vaziyat: Voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasini imzolamoqchi. Bu qonuniymi?

Tinglovchilar: Tegishli qonun moddasini topadi. Qaror chiqaradi. Xulosa beradi.

Debat (munozara) - o‘quvchilarning huquqiy bilimlarini dalillar asosida himoya qilish, qarshi fikrni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi interfaol metoddir. Bu metod orqali o‘quvchilar qonun normalarini real hayotiy masalalar bilan bog‘laydi.

Huquqiy debatlarida asosiy normativ manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va tegishli kodekslardan foydalaniladi.

Mavzu: “Internetda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish zarurmi?”

Guruhlar:

“Ha” tomoni

“Yo‘q” tomoni

Tinglovchilar dalillarini qonunchilik asosida isbotlaydi.

Huquqiy hujjat bilan ishlash - o‘quvchilarning normativ-huquqiy manbalarni mustaqil o‘qish, tahlil qilish va amaliy vaziyatlarga tatbiq etish ko‘nikmasini shakllantiruvchi metoddir. Bu usul huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shuningdek, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik kodeksi, Mehnat kodeksi kabi normativ hujjatlardan foydalaniladi

Tinglovchilarga Konstitutsiyaning ma’lum moddasi beriladi:

- Moddaning mazmunini tushuntirish
- Hayotiy misol keltirish
- Amaliy ahamiyatini aniqlash

Baholash mezonlari

Ko‘nikma	Ball
Huquqiy asosni to‘g‘ri toppish	3
Tahlil qilish	3
Dalillash	2
Xulosa chiqarish	2

Xulosa. Huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish tinglovchilarda: mustaqil fikrlash, qonun ustuvorligini anglash, fuqarolik mas'uliyatini shakllantiradi. Amaliy mashg'ulotlar orqali tinglovchilar nazariy bilimlarni real hayot bilan bog'laydi va huquqiy madaniyat rivojlanadi.

2-amaliy mashg'ulot: "Davlat va huquq asoslari" fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqishning samarali usul va vositalari.

Zamonaviy ta'lim sharoitida "Davlat va huquq asoslari" fanini yangicha mazmunda tashkil etish - nazariy bilimni amaliy ko'nikmaga aylantirish, huquqiy ong va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishni talab etadi. Bu jarayon milliy qonunchilik va konstitutsiyaviy qadriyatlar asosida olib boriladi, xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fan mazmunining tayanch manbai hisoblanadi.

Mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarda "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va innovatsion vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ta'limiy: Fan mazmunini modernizatsiya qilish yo'llarini aniqlash
Kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotda qo'llash.

Rivojlantiruvchi: Tahliliy va innovatsion fikrlashni shakllantirish. Metodik yechim ishlab chiqish ko'nikmasini rivojlantirish.

Tarbiyaviy: Qonun ustuvorligi va fuqarolik mas'uliyatini anglash.

Kutilayotgan natijalar: Mashg'ulot yakunida ishtirokchilar fan mazmunini yangilashning asosiy yo'nalishlarini aniqlaydi, interfaol metodlarni tanlay oladi, amaliy model ishlab chiqadi, kompetensiyaviy baholash mezonini tuzadi. zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tahlil qiladi, o'quv mashg'uloti uchun innovatsion model ishlab chiqadi.

Mashg'ulotning borishi. I-bosqich: Muammoli.

O'qituvchi savol beradi: "Nega o'quvchilar qonunni bilsa ham, amalda qo'llay olmaydi?" Ishtirokchilar fikr bildiradi (Aqliy hujum).

II-bosqich: Kichik guruhlarda ishlash.

Guruhlar 3 yo'nalishda ishlaydi:

1-guruh: Mazmunni yangilash. Qanday mavzular amaliy yo'naltirilishi kerak? Konstitutsiyaviy qadriyatlarni qanday chuqurlashtirish mumkin? Asos sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tamoyillari olinadi.

2-guruh: Samarali metodlar

Quyidagilardan model ishlab chiqadi:

Sud jarayoni ro'lli o'yini - bu talabalarga sud muhokamasi jarayonini amaliy tarzda o'rgatish, huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish va mustahkamlashga

xizmat qiluvchi interfaol metoddur. Ushbu usul orqali talabalar real sud jarayonining modellashtirilgan shaklida ishtirok etadilar.

Case-study (Keys-stadi) - bu ta'lim jarayonida real yoki shartli huquqiy vaziyatni tahlil qilish orqali talabalarni mustaqil fikrlashga, muammoni aniqlashga va asosli qaror qabul qilishga o'rgatuvchi interfaol metoddur.

Debat - bu muayyan huquqiy yoki ijtimoiy masala yuzasidan qarama-qarshi fikrlarni dalillar asosida himoya qilishga qaratilgan interfaol ta'lim metodidir. Ushbu metod talabalarni tanqidiy fikrlashga, huquqiy asos bilan isbotlashga va nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Loyihaviy ta'lim - bu talabalarning muayyan muammo yoki ijtimoiy-huquqiy masalani mustaqil tadqiq etishi, amaliy yechim ishlab chiqishi va natijani taqdim etishga asoslangan zamonaviy pedagogik metoddur.

3-guruh: Zamonaviy vositalar.

Raqamli platformalar - bu ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va baholashni onlayn muhitda amalga oshirish imkonini beruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridir. "Davlat va huquq asoslari" fanini o'qitishda raqamli platformalar huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Video sud jarayonlari - bu real yoki modellashtirilgan sud majlislarini videoyozuv shaklida namoyish etish orqali talabalarda huquqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan innovatsion ta'lim vositasidir. U "Davlat va huquq asoslari" fanida nazariy bilimlarni amaliy jarayon bilan bog'lashda samarali metod hisoblanadi.

Elektron test tizimi - bu talabalarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini onlayn shaklda nazorat qilish, baholash va tahlil qilish imkonini beruvchi raqamli baholash vositasidir. "Davlat va huquq asoslari" fanida elektron test tizimi huquqiy bilimlarni tezkor, shaffof va obyektiv baholash imkonini beradi.

Infografika va sxemalar - bu murakkab huquqiy tushunchalarni, jarayonlarni yoki qonun normalarini vizual tarzda, grafik elementlar yordamida tushuntirishga qaratilgan interfaol ta'lim vositalari hisoblanadi. "Davlat va huquq asoslari" fanida ular talabalarning tushunishini osonlashtirish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashda juda samarali.

III-bosqich: Amaliy vazifa (25 daqiqa)

Har bir guruh quyidagi topshiriqni bajaradi:

Topshiriq:

"Davlat va huquq asoslari" fanining bitta mavzusini tanlab, uni yangi sifat bosqichida o'qitish modeli ishlab chiqing.

Masalan:

- Sud tizimi (misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi faoliyati asosida).

- Hokimiyatlar bo‘linishi.
 - Inson huquqlari.
- Guruh quyidagilarni ishlab chiqadi:

1. Interfaol metod.
2. Raqamli vosita.
3. Baholash mezonlari.

IV-bosqich: Taqdimot.

Har bir guruh 5 daqiqa davomida:

O‘z modelini himoya qiladi.

Savollarga javob beradi.

V-bosqich: Refleksiya va xulosa.

Savollar:

- Qaysi metod eng samarali bo‘ldi?
- Qanday yangilik kiritildi?
- Amaliyotga qanday joriy etish mumkin?

Baholash mezonlari

Mezoni	Ball
Innovatsion yondashuv	3
Amaliy yo‘naltirilganlik	3
Mantiqiylik va asoslanganlik	2
Taqdimot sifati	2

Amaliy mashg‘ulotga hulosasi “Davlat va huquq asoslari” fanining mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqish samarali usullari va vositalari talabalarda huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish hamda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. Amaliy mashg‘ulot jarayonida quyidagi asosiy xulosalarga kelish mumkin:

3-amaliy mashg‘ulot: Huquqiy kompetensiyalar turlari ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni.

Huquqiy kompetensiya - bu shaxsning huquqiy bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyatidir. U nafaqat qonunni bilish, balki uni hayotda to‘g‘ri tatbiq etish, huquqiy mas’uliyatni anglash va fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishni ham o‘z ichiga oladi.

Huquqiy kompetensiyalarning mazmuni va yo‘nalishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tamoyillari asosida shakllanadi.

Mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarda huquqiy kompetensiya tushunchasi, uning turlari hamda jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati haqida tizimli bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Mashg'ulotning maqsadi: Tinglovchilarda huquqiy kompetensiya tushunchasi, uning asosiy turlari hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati haqida tizimli bilim, tahliliy fikrlash va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Vazifalar: Huquqiy kompetensiya mohiyatini ochib berish., Huquqiy kompetensiyalar turlarini tasniflash, Jamiyat rivojida huquqiy kompetensiyaning ro'lini asoslash, Real huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish

Asosiy tushunchalar. Kompetensiya va kompetentlik. Huquqiy ong. Huquqiy madaniyat. Fuqarolik mas'uliyati. Qonun ustuvorligi. Demokratik jamiyat.

Mashg'ulot turi Interfaol amaliy mashg'ulot (keys-stadi, guruhli ish, munozara)

Mashg'ulotning borishi.

1-bosqich: Muammoli savol:

Huquqiy bilim va huquqiy kompetensiya o'rtasida qanday farq bor?

Tinglovchilar fikrlari eshitiladi va umumlashtiriladi.

2-bosqich:

Huquqiy kompetensiya tushunchasi. Huquqiy kompetensiya — shaxsning huquqiy bilimlarga ega bo'lishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi hamda o'z huquq va majburiyatlarini anglab, qonuniy va mas'uliyatli faoliyat yurita olish qobiliyatidir.

Huquqiy kompetensiyalar turlari:

Axborotiy-huquqiy kompetensiya — shaxsning axborot bilan ishlash jarayonida amaldagi huquqiy me'yorlarni bilishi, ularga rioya qilishi hamda axborotdan qonuniy, xavfsiz va mas'uliyatli foydalanish qobiliyatidir. Bu kompetensiya axborot madaniyati va huquqiy savodxonlikning uzviy uyg'unligidan iborat bo'lib, ayniqsa raqamli ta'lim va zamonaviy axborot muhitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy-huquqiy kompetensiya — shaxsning mavjud huquqiy bilimlarini real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda to'g'ri, samarali hamda qonuniy tarzda qo'llay olish qobiliyatidir. Huquqiy vaziyatlarda qonuniy yo'l tutish. Bu kompetensiya nazariy huquqiy bilimlarning amaliy faoliyat bilan uyg'unlashuvini ifodalaydi.

Tahliliy-huquqiy kompetensiya — shaxsning huquqiy axborotni chuqur tahlil qila olish, normativ-huquqiy hujjatlarni mazmunan anglash, huquqiy vaziyatlarga tanqidiy va mantiqiy yondashish hamda asoslangan xulosa chiqara olish qobiliyatidir.

Huquqiy muammolarni baholash va tahlil qilish. Bu kompetensiya huquqiy tafakkur, mantiqiy fikrlash va dalillarga tayangan holda qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ-huquqiy kompetensiya — shaxsning huquqiy bilim va me'yorlarga tayangan holda samarali muloqot olib borish, o'z fikrini asosli va qonuniy tarzda ifoda etish hamda huquqiy munosabatlarda to'g'ri kommunikatsiya

qila olish qobiliyatidir. O‘z huquqlarini himoya qilish va muloqot olib borish. Bu kompetensiya muloqot madaniyati, huquqiy savodxonlik va nizolarni qonuniy asosda hal etish ko‘nikmalarining uyg‘unligini ifodalaydi.

Fuqarolik-huquqiy kompetensiya — shaxsning o‘zini jamiyat va davlatning faol fuqarosi sifatida anglash, fuqarolik huquq va majburiyatlarini bilish, ularga rioya qilish hamda jamiyat hayotida ongli va mas’uliyatli ishtirok etish qobiliyatidir. Jamiyat hayotida faol ishtirok etish va qonunlarga hurmat bilan qarash. Bu kompetensiya fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy madaniyat va ijtimoiy faollikning uyg‘unligidan iborat.

Huquqiy kompetensiyaning huquqiy asoslari. Jamiyatda huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi da ham mustahkamlangan. Unda inson huquqlari, erkinliklari va qonun ustuvorligi asosiy qadriyat sifatida belgilangan.

3-bosqich: Guruhlarda ishlash.

Tinglovchilar 4 guruhga bo‘linadi.

1-guruh: Keys tahlili.

Vaziyat:

Fuqaro iste‘molchi sifatida sifatsiz mahsulot sotib oldi.

Topshiriq:

Qaysi huquqiy kompetensiyalar zarur?

Muammoni hal etish bosqichlarini ishlab chiqing.

2-guruh: Jamiyat taraqqiyoti modeli.

Topshiriq:

Huquqiy kompetensiyasi yuqori jamiyat modelini ishlab chiqing.

Uning iqtisodiy va siyosiy afzalliklarini ko‘rsating.

3-guruh: Muammo tahlili

Topshiriq:

Huquqiy savodxonlik past bo‘lgan jamiyat oqibatlarini yozing.

Statistik yoki hayotiy misollar keltiring.

4-guruh: Innovatsion loyiha

Topshiriq:

Yoshlar o‘rtasida huquqiy kompetensiyani oshirish bo‘yicha innovatsion loyiha ishlab chiqing.

(Mobil ilova, huquqiy klub, onlayn platforma va boshqalar)

4-bosqich: Taqdimot va munozara.

Har bir guruh 5 daqiqadan taqdimot qiladi.

Munozara savollari:

Huquqiy kompetensiya korrupsiyaning oldini oladimi?

Huquqiy madaniyatni shakllantirishda oila, maktab va davlatning o'ri qanday?

5-bosqich: Yakuniy xulosa

Tinglovchi tomonidan:

- Eng samarali loyiha aniqlanadi.
- Faol talabalar rag'batlantiriladi.
- Mavzu bo'yicha umumiy xulosa beriladi.

Baholash mezonlari

Mezoni	Ball
Faollik	2
Tahlil sifati	3
Amaliy takliflar	3
Taqdimot	2
Jami: 10 ball	

Interfaol metodlar samaradorligi: Rolli o'yinlar, debat, case-study va loyihaviy ta'lim talabalarni faollashtiradi, nazariy bilimlarni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash imkonini beradi.

Raqamli vositalarning o'ri: Video sud jarayonlari, elektron test tizimlari, raqamli platformalar va infografikalar fan mazmunini vizual va interaktiv tarzda yetkazishga yordam beradi, o'quv jarayonini zamonaviylashtiradi.

Kompetensiyalarni shakllantirish: Huquqiy kompetensiyalar (axborotiy, amaliy, tahliliy, fuqarolik-huquqiy) faqat nazariy bilim bilan emas, balki amaliy yondashuv va turli interfaol metodlar orqali rivojlantiriladi.

Tinglovchi markazli yondashuv: Mashg'ulotlar loyihaviy, interfaol va muammoli vaziyatlarga yo'naltirilgan bo'lishi orqali talabalar mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini egallaydi.

Fan mazmunining sifatini oshirish: Integratsiyalangan yondashuv - nazariya, amaliyot va raqamli vositalarni uyg'un qo'llash - fan mazmunini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi va talabalarni real hayotda huquqiy vaziyatlarni boshqarishga tayyorlaydi.

Xulosa sifatida, amaliy mashg'ulotlar orqali fan mazmunini zamonaviy va sifatli darajaga ko'tarish, talabalarda huquqiy madaniyat, kompetensiya va mas'uliyatni rivojlantirishga asos bo'ladi.

V. GLOSSARIY

Bunyodkorlik g'oya – jamiyat va fuqaro turli guruh va qatlamlar, millatni taraqqiyot sari yetaklovchi, xalqni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qiliishga undovchi g'oyadir.

Bunyodkor g'oya ta'sirida inson ezgulikka, ozodlik va mustaqillikka erishish uchun intiladi, adolat va haqiqat tantanasi yo'lida kurashadi, buyuk tarixiy g'alabalarni qo'lga kiritadi. Vatanni sevish, yurt tinchligini asrash, xalq farovonligi yo'lida ko'rashish – bunyodkor g'oyalarning ma'no-mazmunini belgilaydi. Qabix niyatli kuchlarning asl qiyofalarini oshkor etishda bunyodkor g'oyalar asosidagi e'tiqod va dunyoqarashning ahamiyati beqiyosdir.

Davlat – jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar ustidan siyosiy hokimiyat va boshqaruvni tashkil etish. Siyosiy tizimning asosiy muassasasi.

Davlatning asosiy xususiyatlari: 1. Hokimiyatning legitimligi va uni ro'yobga chiqarishga monopoliya. 2. Fuqarolik jamiyati ichida va undan tashqarida munosabatlarni tartibga solib turish uchun maxsus muassasalarning borligi. 3. Hudud va aholining borligi, davlat o'z ta'sirini ana shularga o'tkazadi.

Davlat tuzumi:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat mahkamasi (parlament, Oliy Majlis, kengashlar, kongress, seym).
2. Ijro etuvchi va farmoyish beruvchi muassasalar.
3. Sud hokimiyati idoralari.

Davlat, quyidagi asosiy vazifalarni ado etadi: xo'jalik yumushlari, tashkilotchilik yumushlari, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini muhofaza etish, nazorat qilish, davlat va jamiyatni muhofaza qilish, tashqi aloqalar, madaniy-tarbiyaviy ishlar.

Jamoat tashkilotlari – odamlar jamoasi bo'lib, ularni mushtarak manfaatlar birlashtirib turadi. Mazkur jamoa ushbu jamiyatni qabul qilingan qonunlar va meyorlar bo'ysinib, muayyan maqsadlarni ro'yobga chiqaradi.

Jamoat tashkilotining xususiyati:

- tashkilot a'zolari aloqalar va manfaatlarining tizimi;
- ichki tuzilishini bunyod etish usullari;
- qarorlar ishlab chiqish va qabul qilishning shakli va usullari hamda usullarni amalga oshirish yo'llari.

Jamoat tashkilotlarining turlari (tiplari):

- kuchli g'oyaviy-siyosiy va ma'naviy aloqalar tizimlari bo'lgan tashkilot, ya'ni siyosiy partiyalar;
- muayyan maqsadlar va vazifalar amalga oshirishdan manfaatdor bo'lgan tashkilotlar (kasaba uyushmalari, tashkilotlar va boshqalar);

- muayyan dasturlar yoki xatto ayrim shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuziladigan tashkilotlar.

Istiqlol (arabcha – ozodlik, mustaqillik, erkin bo‘lish) – inson, millat, davlatning erkin rivojlana olish imkoniyatini ifoda etuvchi tushuncha. „Istiqlol“ so‘zi „mustaqillik“ so‘zi uchun o‘zak hisoblanadi va unga nisbatan birlamchi asos vazifasini o‘taydi. Arab tilidan kirib kelgan bu so‘zlar asrlar davomida qo‘llanilib xalq tushunchasiga singib ketgan.

1991 yil sentabr – Mustaqillik kuni, deb e‘lon qilinganidan boshlab O‘zbekistonda mustaqil rivojlanishning o‘ziga xos va mos yo‘l, taraqqiyotning o‘zbek modeli tamoyillariga asosan huquqiy demokratik fuqarolik jamiyati barpo etmoqda.

Konfederatsiya – davlatlar to‘la adliyaviy va siyosiy mustaqillikni saqlab qolgan holda birlashadilar, markaziy hokimiyat, mushtarak qonunlar, fuqarolik va sud tizimi bo‘lmaydi.

Millat – tarixan tarkib topgan barqaror ijtimoiy etnik birlik bo‘lib, uning yagona iqtisodiy va ijtimoiy hayoti, umumiy xududi, tili, madaniyati, xulq atvori (psixologiya) mushtarak bo‘lishi lozim.

Milliy an‘analar – har bir xalqning asrlar davomida vujudga kelgan o‘ziga xos madaniyat, nodir qadriyatlari, an‘anasi, urf-odatlar mavjud. An‘analar tarixiy saboqlardan o‘tgan, hayotda sinalgan, ijtimoiy taraqqiyotda yashashga qodir, avloddan - avlodga o‘tuvchi ijtimoiy xodisadir. An‘analar jamiyat rivojining ustuni, bamisoli hayot va ijod maktabi, yuqoriga ko‘tarilishda suyanch, xalqning tarixiy taraqqiyotida erishgan barcha yutuqlarni ifodalovchi va saqlovchi omildir. U garchand shaklan milliy tavsifga ega bo‘lsa-da, mazmunan umumbashariy mohiyatga egadir. Mustaqil O‘zbekiston o‘zining yangilanish va rivojlanish yo‘lida umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ma‘naviy meroslar, aqliy foydalanish va uni boyitish masalasiga alohida e‘tibor berilmoqda.

Milliy munosabatlar – millatlarning aloqalari va hamjihatligi tizimi, shuningdek ular mavjudligi va ravnaki jarayonidagi millatlar ichidagi munosabatlari.

Milliy siyosat – davlatni tegishli siyosiy va adliyaviy hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan, millatlar va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga solib turadigan muayyan maqsadga qaratilgan faoliyat.

Partiya – (lotincha so‘z bo‘lib, qism ma‘nosini anglatadi) sinflar, tabaqalar, ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifoda etish uchun tashkil etilgan jamiyatning bir qismi. Partiya mohiyatining anglash uchun uchta yondashuv qabul qilingan:

a) Biror - bir mafkuraviy doktrinaga ixlos qo‘ygan odamlar guruhi;

b) muayyan sinf manfaatlarini ifoda etadigan siyosiy tashkilot bo‘lib, u ana shu sinfning yetakchisi bo‘ladi;

v) partiyani davlat tizimida ishlaydigan tashkilot sifatida muassasaviy tushunish.

Partiyaning belgilari: siyosiy birlik, hokimiyatga nisbatan faoliyat (asosiylari).

Siyosiy partiyalari turlari:

1. Ko'xna (arxaik) tipdagi partiya (amerika tipi); uyushgan aniq tizimning yo'qligi, faoliyatining davriyligi (odatda saylov mavsumi paytida ishlaydi), a'zolik davlat idoralariga ovoz berish natijalariga ko'ra tayin etiladi, xayr-ehson evaziga ish ko'rish.

2. Parlament tipdagi partiya (yevropa tipi); tashkiliy tizimlarning mavjudligi, muayyan siyosiy doiralarga o'z ta'sirini o'tkazib, o'zini parlament faoliyatiga chorlash, demokratizm negizidagi a'zolik, partiya faoliyatini mablag' bilan ta'minlashning aralash tizimi, ijtimoiy tuzumni o'zgartirmasdan ishlayotgan islohotlar partiyalari.

3. Ilg'or tipdagi partiyalarning aniq tashkiliy tuzilmalarning mavjudligi, ijtimoiy munosabatlar barcha jabhalariga ta'sir o'tkazish, davlat tizimiga bosh quyish, uyushish va ishlashning demokratik markazlashtirish tamoyillari, partiya faoliyati a'zolik badallari bilan ta'minlanadi.

4. Boshqacha tamoyillar asosida uyushgan partiyalar (allomalar, zukkolar klublari, mason lojalari, xalqaro partiyalar va shunga o'xshashlar).

Siyosiy partiyalarning asosiy turlari:

- monarxiya partiyalari;
- burjua konservativ partiyalar;
- fashistcha, o'ta o'ng partiyalar;
- liberal demokratik partiyalar;
- diniy partiyalar;
- sotsialistik, o'ta so'l, ekstremistik partiyalar, uyushmalar va konfederatsiyalar tarzida ishlaydilar, chunki anarxizm qat'iy tashkilotni tan olmaydi.

Referendum (umumxalq so'rovi) – bevosita xalq hokimiyatining muassasalaridan biri. Hokimiyat idoralari, davlat, jamiyat faoliyati uchun hayotiy muhim ahamiyatga molik bo'lgan masala xususida jami halqning ovoz berishi. O'ziga xos xislati: referendum yakunlari imperativdir, ya'ni ijro etish uchun majburiydir va uzil-kesildir. Referendum birinchi bor 1439 yilda Shveysariyaning Bern kontonida o'tkazilgan edi. Referendum o'tkazish barcha mamlakatlarda ko'zda tutilmagan. Masalan, 23 shtatni istisno etganda, AQShda umumxalq so'rovi o'tkazilmaydi. Sobiq Ittifoqda referendum 1989 yilda bo'ldi. Shu vaqtga qadar umumxalq muhokamalari va so'rovlari bo'lmagan edi.

Siyosiy tuzum. Siyosiy, ijtimoiy tashkilotlar va muassasalar, siyosiy qarorlar qabul qiluvchi idoralar, mafkura va an'analar majmuidirki, shular vositasida jamiyat tashkil etiladi. G'arb siyosatshunosligida siyosiy tizim ko'p hollarda siyosiy madaniyat bilan bir o'ringa qo'yiladi. Siyosiy tizimning unsurlari quyidagilardan iborat:

Siyosiy muassasalar va tashkilotlarning kichik tizimi, bularning orasida eng asosiysi davlatdir.

Siyosiy rejimda o‘z ifodasini topgan siyosiy munosabatlarning kichik tizimi.

Qonunlar, huquqiy normalar, mafkuralar va axloq-odobda o‘z ifodasini topgan g‘oyalar va tamoyillarning kichik tizimi.

Siyosiy rejim – siyosiy hokimiyat davlatning yashashini ro‘yobga chiqarish va jamiyatdagi munosabatlarini tartibga solib turish tizimi

Siyosiy rejimning turlari:

1. Totalitar siyosiy rejim:

a) shaxsiy hokimiyat rejimi;

b) ijtimoiy guruh rejimi.

Bunday rejim fuqarolar jamiyatini, ijtimoiy hayot barcha jabhalarining siyosiy lashuvini rad etadi, shaxsni batamom yot qilib qo‘yadi va uni o‘ziga bo‘ysundiradi.

2. Avtoritar siyosiy rejim:

a) diktatura;

b) byurokratik rejim.

Bu rejimning o‘ziga xos jihati: hokimiyat vakillari mavqeining pasayishi, hokimiyatning bo‘linmaganligi yoki uning rasman bo‘linishi, hokimiyatning byurokratiya qo‘lida jamuljam bo‘lishi, siyosiy jabxaga boshqa jabhalarga nisbatan ustuvorlik berilishi, qonunchilikning rad etilishi, jazo (repressiv) mahkamaning borligi va uning ta’siri kuchliligi.

3. Liberal siyosiy rejim (asli lotincha so‘z bo‘lib, ozodlik demak) – bu siyosiy rejimning shunday bir shakli-ki, shaxsga nisbatan davlat yo‘li bilan va ijtimoiy yo‘l bilan; majbur etishning bir qadar yumshashini anglatadi. Inson huquqlarini, hokimiyatni bo‘lishini, ishni o‘z ixtiyori bilan tangalab olishni va va erkin raqobatni, sabr-qanoatni (tolerantlik) va boshqalarni e’tirof etadi.

4. Demokratiya (yunoncha so‘z bo‘lib, xalq va hokimiyat demakdir) – xalqni hokimiyat manbai deb e’tirof etishga, xalqning davlat ishlarini hal etishda ishtiroq etish huquqiga asoslangan va ayni vaqtda fuqarolarga keng qo‘lamda huquqlar va erkinliklar berib qo‘yiladigan davlat turidir.

Siyosiy madaniyat – siyosiy tizimi tarkibiy qismi bo‘lib, davlat jamoat ishlarini hal etishda, demokratiyani chuqurlashtirishda odamlarning amaliy ishtiroqi va ularning onglik darajasini ifodalaydi, shuningdek ayni vaqtda ma’naviy madaniyatning juda muhim tarkibi uning mafkuraviy dunyoqarashi jihatidir.

Suverenitet – xalq huquqlarining shunday bir ko‘rinishiki, bu mazkur xalqqa mustaqil yashashga, milliy o‘ziga xoslikka, boshqa xalqlarning va o‘z davlatining manfaatlarini hisobga olib, uning ravnaki uchun qulay shart-sharoitlarni taminlashga imkon beradi.

Unitarizm – davlat tuzilishining shunday tamoyiligi, bunda rasman mustaqil bo‘lgan tuzilmalarning huquqlari batamom markaziy hokimiyatga berib quyiladi va mazkur tuzilmalar faqatgina ma’muriy tizimga aylanib qoladi.

Fuqarolik jamiyati – demokratiyaning yuksak darajada rivojlanishi asosiy vujudga keladigan jamiyat bo‘lib, unda davlat va jamiyat boshqaruvi fuqarolar tomonidan to‘liq amalga oshiriladi. Shu tariqa fuqarolarining ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi imkoniyatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keladi.

Fuqarolik jamiyatining eng muhim belgisi fuqarolarning davlat tuzilmalari faoliyati ustidan to‘liq nazoratni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Bunda fuqarolarning davlat uchun emas, davlatning fuqarolar uchun xizmat qilish tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etadi va har bir fuqaroning jamiyat a’zosi sifatidagi imkoniyatlari to‘liqroq yuzaga chiqadi.

Fuqarolik jamiyatida insonlarning intellektual salohiyati o‘shib, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari kengayib borishiga mos ravishda mustahkamlanib, takomillashishidan iborat uzluksiz jarayon xisoblanadi.

Fuqarolik institutlari – jamiyatda qaror topgan nodavlat tashkilotlardir. Ular muayyan ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy faoliyatni amalga oshiradilar. Fuqarolik institutlari tarkibiga jamoat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, mahalla qo‘mitalari, jamg‘armalar va boshqalar kiradi. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o‘tishda fuqarolik institutlarining roli oshib boradi. Davlat o‘zining ko‘pgina funksiyalarini fuqarolik institutlariga beradi. Fuqarolik jamiyatida fuqarolik institutlari asosiy rol uynaydi.

Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash – mamlakat ahlini bozor iqtisodiyotining oqibatlarida asrash hamda shu oqibatlarining aholi ijtimoiy - iqtisodiy ahvoriga ta’sirni yumshatishdan iboratdir. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish narx-navoning oshishi va ishsizlikning ko‘payishi kabi ijtimoiy muammolarni paydo qiladi, aholining boy va kambag‘al qatlamlarga ajralishini ma’lum darajada ko‘chaytiradi. Jamiyatda muvozanatni ta’minlash uchun fuqarolarning ma’lum qatlamini ijtimoiy himoyalash zarur bo‘ladi. Bu ishni davlat, korxonalar va jamoasi va jamoat tashkilotlari bajaradi. Ijtimoiy himoyalash, eng avvalo, daromadlarni indeksatsiyalash shaklida boradi. YA’ni, narx-navoning o‘zgarishiga qarab aholi oladigan pul daromadi ham o‘zgarib boradi. Bu eng avvalo, qat’iy belgilangan pul daromadi o‘quvchilar, o‘qituvchilar, shifokorlar, davlat xizmatchilari, ilmiy xodimlarga taalluqli bo‘ladi, bunday ishlovchilar esa o‘zlari ishlab pul topishlari kerak. Lekin bunga sharoit yaratish zarurdir. Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash ishga kam ta’minlangan oilalar, ko‘p bolalilar, nogironlar, nafaqaxo‘r muhtoj bo‘ladi. Ularga beriladigan yordam iste’mol tovarlari narxi oshishi bilan ko‘rgan zararni qoplash (kompensatsiya berish) shaklida yoki ularni qat’iy narxda va normalashtirilgan miqdorda eng zarur tovarlar bilan

amalga oshiriladi. Fuqarolarni ijtimoiy himoyalash ishsizlarga nafaka pul to'lash ularning malakasini oshirib, kasbini o'zgartirib ishga joylashtirish yo'nalishlarida ham olib boriladi.

O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining eng muhim siyosatidir. Davlat ijtimoiy himoya siyosatini yurgiza borib, mustaqillik yiilarida bir qator Milliy dasturlarni qabul qildi va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda. Masalan, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi vazifalarini bajarish maqsadida davlat budjetining 38 – 40% foizi sarflanmoqda.

Federatsiya – yagona ittifoq davlatining bir nechta davlat tuzilmalari yoki milliy davlat tuzilmalaridan tashkil topishi, ayni vaqtda bu tuzilmalar muayyan darajada siyosiy va adliyaviy mustaqillikni saqlab qoladilar.

Etatizm (fransuzcha so'z bo'lib, davlat demakdir) – davlatning jamiyat iqtisodiy va siyosiy hayotidagi mavqeininigi kuchayishini ta'riflashda qo'llaniladigan atama. Davlatni ijtimoiy taraqqiyotning oliy natijasi va maqsadi deb biluvchi tushuncha. Etatizm g'oyalari ko'pgina siyosiy doktrinalarda ko'zga chalinadi. Kapitalizmga bo'lgan davrda bu g'oyalar asosan absolyutizmni asoslash va himoya qilish bilan bog'liq edi. Etatizm davlat kapitalizmning siyosati sifatida liberalizmga va demokratiyaga qarshi qaratilgan siyosat bo'lib, u davlatning kuchli hokimiyati bo'lishini talab etdi.

O'zini-o'zi boshqarish modellari: 1. Ingliz-sakson modeli mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning eng namunali tipi hisoblanib, unda o'zini-o'zi boshqarish barcha haqiqiy hokimiyat; mahalliy manfaatlari doirasida amal qiladi. 2. Fransuzcha o'zini-o'zi boshqarishda esa hokimiyat (rasmani o'zini-o'zi boshqarishni qiluvchi mahalliy hokimiyat organlari hisoblanadi.

3. Germancha modelda esa davlat boshqaruvi bilan mahalliy o'zini-o'zi boshqarish yagona institut bo'lib uyg'unlashadi,

Hokimiyat. Odamlar katta guruhlarining ijtimoiy munosabatlari shakli, 2. Muayyan ijtimoiy guruhning siyosatda va huquqiy mezonlarda o'z xoxish-irodasini o'tkaza bilish qobiliyati.

Hokimiyat munosabatlarning alomatlari: a) boshqaruvning alohida devoni; b) jamayotga nisbatan majbur etish; v) siyosiy hayotni tartibga solib turishdagi yakkahokimlik; g) boshqa davlatlarga nisbatan hokimiyat idoralarining suvereniteti.

Hokimiyatning legitimligi (lotincha so'z bo'lib, qonuniy, huquqiy degan ma'noni anglatadi) – ushbu atama M.Veber tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, ijtimoiy tartib va siyosiy faoliyatning davlat qonunlariga huquqiy asosligi demakdir. Shu bilan legitimlik hokimiyatni zo'rvonlik bilan egallab olishdan farq qiladi. Hokimiyatning legitimligi siyosiy munosabatlar tizimiga barqarorlik baxsh etadi. Chunki huquqiy jihatdan asoslanganlik bu o'rinda e'tiqodni, axloq-odobni o'ldiradi, hokimiyat subyektlari esa jamiyat nomidan vakolat organ bo'ladilar va

jamiyat ularni nazorat qilib turadi. Shu tariqa jamiyatning yaxlitligi, obyektlarning birligi, siyosat subyektlarining hamda hokimiyat munosabatlarining birligi ta'minlanadi.

Huquqiy davlat – ijtimoiy hayotning barcha sohalarda qonun ustuvorligi, davlatning o'zi ham uning bilan bog'liq bo'lishi shaxsning erkinligi, uning huquqlari va manfaatlari nomusi va qadr-qimmatining daxlsizligi, bularning muhofaza etishi va kafolatlanligi. Davlat va shaxsning o'zaro ma'suliyati qonuni amalga oshirib ustida nazorat va konstitutsiyaviy kuzatish shakllarining mavjudligi.

Davlatning shakllari:

- Monarxiya;
- Respublika;
- Mustamlaka yoki boshqacha bo'ysunish;
- Davlatning boshqacharak qurilishi.

Hokimiyatni bo'lish tizimi – jamiyatni hokimiyatni taqsim etishga qaysidir darajada xosdir. Turli ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi murosai madora bo'lib, jamiyatning barqarorligiga xizmat qiladi, hokimiyat munosabatlarining og'ib ketishiga yo'l qo'ymaydi.

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021. - B. 464.
2. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar. - Toshkent: "Tasvir", 2021. - B. 52.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: 2021. - B. 458.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 536.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin, obod va farovon mamlakatni - Yangi O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 368.
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. - B. 392.
7. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2024. - B. 344.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil, 26 dekabr. / <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2023. - B. 110.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni. / https://baxtiyor.uz/wp-content/uploads/2023/05/O'zbekiston_Respublikasining_talim_to'g'risidagi_qonuni.pdf
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. / <https://kun.uz/news/2019/10/09/shavkat-mirziyoyev-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasini-tasdiqladi>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni. / <https://test.lex.uz/ru/docs/-5073447?ONDATE=30.10.2020%2000>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. / <https://lex.uz/m/acts/-7204942>

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni. / <https://lex.uz/uz/doc-passport/-6600413>

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4860-sonli Qarori. / <https://lex.uz/uz/docs/-5679836?type=print>

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4910-son Qarori. / <https://lex.uz/docs/-5141332?ONDATE2=04.12.2020&action=compare>

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-358-son Qarori. / <https://gov.uz/oz/digital/news/view/24510>

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-iyundagi “Akademik liseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 296-son Qarori. / <https://daryo.uz/demo/2022/06/08/ozbekistonda-litsey-rahbar-va-pedagog-xodimlarining-uzluksiz-malakasini-oshirish-tizimi-joriy-etiladi>

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 717-son Qarori. / <https://lex.uz/ru/docs/-5746496>

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-iyuldagi “2025-2026 yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari sohasida ustuvor loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 425-son Qarori. / <https://lex.uz/docs/-7621993?query=O%27zbekiston%20Milliy%20axborot%20agentligi>

13. BMT Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 1948. / <https://lex.uz/docs/-7338189>

14. BMT Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. 1989. / <https://lex.uz/ru/docs/-2595913>

III. Maxsus adabiyotlar

8. Zulunov R.M. Sun’iy intellekt texnologiyalari - Toshkent: Classic, 2024.

9. Mo‘minov B.B. Sun’iy intellekt (O‘quv qo‘llanma). - Toshkent: 2023.

10. Babaxodjaeva N.M. Sun’iy intellekt va neyron to‘rli texnologiyalar. - Toshkent: 2023.

11. Toirov S.S., Axmedov U.M. Axborot tizimlari va texnologiyalari (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. - B. 240.

12. Abduraxmonov R.M. Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitlari. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. - B. 200.
13. Muminova L.R, Nazarova D.A. Inklyuziv va maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. - Toshkent: 2021.
14. Nazarova D.A, Mamarajabova Z.N. Maxsus pedagogika (Surdopedagogika). - Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2020.
15. Nazarova D.A. Inklyuziv madaniyatini shakllantirishda ta'lim klasteri sub'yektlarining o'rni. // Scientific aspects and trends in the field of scientific research. International scientific online conference.
16. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) / <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.
17. Butterworth J. & Mitchell D. Inclusive Education and its Social Benefits. - London: Routledge. 2013. - P. 77-80.
18. Florian L. & Black-Hawkins K. Exploring Inclusive Pedagogy. // British Educational Research Journal. 2011. - P. 28.
12. Nazarova D.A. "Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction "Managers of Educational Institutions" to the Effective Organization of Inclusive Education". // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), - P. 7-12.
13. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. - Toshkent shahri. 2021-yil 26-mart. - B. 335.
14. Muxamedov H.M. O'zbekiston davlati va huquqi tarixi. (Darslik) - Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish". 2024. - B. 384.
15. Odilqoriyev X.T., I.T.Tulteyev va boshq. Davlat va huquq nazariyasi. (Darslik) - Toshkent: "Sharq", 2009. - B. 568.
16. H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. Davlat va huquq tarixi. (Darslik) - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. - 345 b.
17. Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. (Darslik) - Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. - B. 246.
18. Najimov M.K. Huquqiy ong va huquqi madaniyat. - Toshkent: TDYuU, 2018. - B. 66.
19. Javliyev N.B. Huquqning mohiyati: an'naviy va zamonaviy nazariyalar. (O'quv qo'llanma) - Toshkent: TDYuU, 2010. - B. 96.
20. Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy kadriyatlar. (Monografiya) - Toshkent: SMI-ASIA, 2010. - B. 400.

IV. Elektron ta'lim resurslari

6. <http://natlib.uz>
7. <http://yedu.uz>
8. <http://lex.uz>
9. <http://lib.bimm.uz>
10. <http://ziyonet.uz>